

## 2019-yil yanvar–iyun oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan va ketgan shaxslar soni

Mamlakatning sayyohlik salohiyatini rivojlantirish uchun chet el fuqarolarini mamlakatga jalb qilish hukumat tomonidan qabul qilinayotgan ijobiy qarorlar tufayli yildan-yilga o'sish kuzatilmoqda.

2019-yil yanvar–iyun oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari soni 3694,6 ming kishini\* tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 35,7 % ga ortgan.

2019-yil yanvar–iyun oylarida chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni 6207,4 ming kishini\* tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanganda esa bu ko'rsatkich 11,3 % ga kam.

### 2019 yil yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan va ketgan shaxslar soni


2018 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan chet el fuqarolari soni

↑ **35,7%**

**11,3%**



2018 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni



\* Respublikaga kelgan va ketganlarning umumiy sonida bir kishi bir necha marta hisoblanishi mumkin va bu alohida xolat sifatida hisobga olinadi

**O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va  
ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining soni dinamikasi**

O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari sonining tahlilidan ko‘rinadiki, 2019-yil yanvar–iyun oylarida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 971,9 ming nafar ko‘p chet el fuqarolari tashrif buyurgan.

Ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari soni, 2018-yil yanvar–iyun oylarida 7002,1 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yil yanvar–iyun oylarida 6207,4 ming nafarni tashkil etdi.

**Kelgan chet el fuqarolari**

	Yanvar–iyun 2018 yil	Yanvar–iyun 2019 yil
<b>MDH davlatlaridan</b>	<b>2553,8</b>	<b>3424,3</b>
<b>Uzoq xorij davlatlaridan</b>	<b>168,9</b>	<b>270,3</b>

**Ketgan O‘zbekiston fuqarolari**

	Yanvar–iyun 2018 yil	Yanvar–iyun 2019 yil
<b>MDH davlatlariga</b>	<b>6753,2</b>	<b>5918,5</b>
<b>Uzoq xorij davlatlariga</b>	<b>248,9</b>	<b>288,9</b>

2019-yil yanvar–iyun oylarida O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining 55,0 % (2030,5 ming kishi) erkaklar, 45,0 % (1664,1 ming kishi) ayollarni tashkil etadi.

Shu bilan birga ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining 60,5 % (3752,7 ming kishi) erkaklar, 39,5 % (2454,7 ming kishi) ayollar tashkil etadi.

MDH davlatlaridan O‘zbekiston Respublikasiga 3424,3 ming kishi tashrif buyurgan bo‘lib, ularning 2507,3 ming nafari qarindoshlarni yo‘qlash maqsadida, 254,7 ming nafari sayyohlik maqsadida, 358,9 ming nafari tranzit orqali tashrif buyurgan.

Uzoq xorijiy davlatlardan O'zbekiston Respublikasiga 270,3 ming kishi tashrif buyurgan. Ulardan 150,0 ming nafari sayyohlik maqsadida, 26,7 ming nafari qarindoshlarni yo'qlash maqsadida, 14,3 ming nafari xizmat maqsadlarida va h.k.


**2019-yil yanvar–iyun oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan  
chet el fuqarolarining soni, ming kishi**

	Jami:	Safar maqsadlari:									
		xizmat yuzasidan	o'qish	ish	sayyohlik	qarindoshlarni yo'qlash	davolanish	doimiy yashash joyi	tijorat	tranzit	boshqa
<b>Jami:</b>	3694,6	27,1	13,4	28,6	404,7	2534,0	32,6	26,8	23,0	364,9	239,4
<b>MDH mamlakatlari</b>	3424,3	12,8	12,5	17,1	254,7	2507,3	32,6	24,2	5,3	358,9	198,9
<b>boshqa xorijiy mamlakatlardan</b>	270,3	14,3	0,8	11,6	150,0	26,7	0,03	2,6	17,7	6,0	40,5

O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining asosiy qismi Qozog'iston Respublikasidan 1187,6 ming kishi (barcha tashrif buyurganlarning 32,1 %), Tojikistondan 1034,0 ming kishi (28,0 %), Qirg'izistondan 680,7 ming kishi (18,4 %), Rossiyadan 260,4 ming kishi (7,0 %), Turkmanistondan 233,4 ming kishi (6,3 %) va Belorussiyadan 9,1 ming kishi (0,2 %) tashrif buyurgan.




## 2019 yil yanvar-iyun oylarida yaqin xorij davlatlaridan kelgan chet el fuqarolari




### 2019-yil yanvar–iyun oylarida uzoq xorijiy davlatlardan O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari soni

Uzoq xorijiy davlatlardan O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining asosiy qismi Turkiyadan 49,3 ming kishi (1,3 %), Xitoydan 26,9 ming kishi (0,7 %), Janubiy Koreyadan 18,6 ming kishi (0,5 %), Hindistondan 16,8 ming kishi (0,5 %), Germaniyadan 11,7 ming kishi (0,3 %), Yaponiyadan 9,5 ming kishi (0,3 %), Fransiya, Italiya va Isroil davlatlaridan mos ravishda 9,3, 8,8 va 6,0 ming kishi tashrif buyurgan.

2019-yil yanvar–iyun oylarida uzoq horijiy davlatlardan  
O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari, %



2019-yil yanvar–iyun oylarida uzoq horijiy davlatlardan  
O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari, ming kishi



2019-yil yanvar–iyun oylarida O'zbekiston Respublikasi fuqarolaridan 5918,5 ming nafar kishi MDH davlatlariga tashrif buyurgan bo'lib, ularning 3368,2 ming nafari qarindoshlarni yo'qlash maqsadida, 1916,2 ming nafari ishlash maqsadida, 60,4 ming nafari sayyohlik maqsadida tashrif buyurgan.

Uzoq xorijiy davlatlarga esa O'zbekiston Respublikasi fuqarolaridan 288,9 ming kishi tashrif buyurgan bo'lib, ulardan 178,9 ming nafari sayyohlik maqsadida, 41,1 ming nafari ishlash maqsadida tashrif buyurgan.

**2019-yil yanvar–iyun oylarida ketgan O‘zbekiston Respublikasi  
fuqarolarining soni, ming kishi**


	Jami:	Safar maqsadlari:								
		xizmat yuzasidan	o‘qish	ish	sayyohlik	qarindoshlarni yo‘qlash	davolanish	doimiy yashash joyi	tranzit	boshqa
<b>Jami:</b>	6207,4	48,1	29,9	1957,4	239,3	3385,8	17,3	194,6	44,1	290,9
<b>MDH mamlakatlariga</b>	5918,5	44,2	23,6	1916,3	60,4	3368,2	13,3	192,7	43,9	255,9
<b>boshqa xorijiy mamlakatlarga</b>	288,9	3,9	6,3	41,1	178,9	17,6	4,0	1,9	0,2	35,0

Chet elga ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining asosiy qismi, ya’ni 44,8 % Qozog‘iston Respublikasiga (2778,3 ming kishi), 26,9 % Qirg‘iziston Respublikasiga (1669,5 ming kishi), 11,9 % Rossiyaga (736,6 ming kishi), 10,9 % Tojikistonga (673,6 ming kishi), Turkmaniston, Belorussiya va Ozarbayjonga mos ravishda 47,8, 6,8 va 5,8 ming kishi tashrif buyurgan.


**2019-yil yanvar–iyun oylarida MDH davlatlariga ketgan  
O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining soni, %**



**2019-yil yanvar–iyun oylarida MDH davlatlariga ketgan  
O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining soni, ming kishi**




**2019-yil yanvar–iyun oylarida uzoq xorijiy davlatlarga ketgan  
O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining soni, ming kishi**



Chet elga ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining asosiy qismi Turkiyaga (98,8 ming kishi), Janubiy Koreyaga (41,6 ming kishi), BAAGA (29,2 ming kishi), Saudiya Arabistoniga (25,2 ming kishi), Xitoy, Hindiston va AQSh davlatlariga (mos ravishda 15,9, 13,9 va 10,6 ming kishi) tashrif buyurgan.

O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining asosiy safar maqsadlari bu qarindoshlarni yo‘qlash (68,6 %). Keyingi o‘rinlarda sayyohlik maqsadi – 10,9 %, tranzit – 9,9 %, davolanish maqsadi – 0,9 %, ishlash maqsadi – 0,8 %, doimiy yashash maqsadi va xizmat yuzasidan – 0,8 % dan, tijorat maqsadi – 0,6 %, o‘qish – 0,4 % va boshqa maqsadlar – 6,5 %. O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining – 55,0 % erkaklar, 45,0 % ayollarni tashkil etadi.

**2019-yil yanvar–iyun oylarida O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining safar maqsadlari bo‘yicha taqsimlanishi, %**



**Kelgan chet el fuqarolari jinsi bo'yicha**

2030,5 ming kishi

1664,1 ming kishi



**55,0%**



**45,0%**




2019-yil yanvar–iyun oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, ularning 53,5 % – 31–55 yoshlilar, 20,8 % – 19–30 yoshlilar, 18,0 % – 56 yosh va undan kattalar, 7,7 % – 0–18 yoshlilar tashkil etadi.


Davolanish maqsadida tashrif buyurgan chet el fuqarolarining 51,4 % – 31–55 yoshlilar, 21,0 % – 19–30 yoshlilar, 19,7 % – 56 yosh va undan kattalar tashkil etadi. Qarindoshlarni yo'qlash maqsadida tashrif buyurganlarning 52,0 % – 31–55 yoshlilar, 19,0 % – 19–30 yoshlilar, 20,1 % – 56 yosh va undan kattalar tashkil etadi.

Sayyohlik maqsadlarida tashrif buyurganlarning 52,5 % 31–55 yoshlilar, 19,5 % – 19–30 yoshlilar, 22,3 % – 56 yosh va undan kattalar tashkil etadi.

**2019-yil yanvar–iyun oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining taqsimlanishi, %**




2019-yil yanvar–iyun oylarida xizmat safari maqsadida kelgan  
chet el fuqarolarining yoshi bo‘yicha taqsimlanishi, kishi




2019-yil yanvar–iyun oylarida sayyohlik maqsadida kelgan 18 yoshgacha bo‘lgan chet el fuqarolarining 11662 nafari erkaklar va 11280 nafari ayollar, 19–30 yoshlilarning 41646 nafari erkaklar va 37307 nafari ayollar, 31–55 yoshlilarning 111234 nafari erkaklar va 101121 nafari ayollar, 56 yosh va undan kattalarning 38367 nafari erkaklar va 52082 nafari ayollardan iborat.


2019-yil yanvar–iyun oylarida sayyohlik maqsadida kelgan  
chet el fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi, kishi



2019-yil yanvar–iyun oylarida chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, ularning 54,5 % qarindoshlarni yo'qlash maqsadida, 31,5 % ishlash maqsadida, 3,1 % doimiy yashash maqsadida, 3,9 % sayyohlik maqsadida, 0,8 % xizmat yuzasidan, 0,7 % tranzit, 0,5 % o'qish maqsadida, 0,3 % davolanish maqsadida va 4,7 % boshqa maqsadlarda ketgan.

2019-yil yanvar–iyun oylarida chet elga ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining safar maqsadlari bo‘yicha taqsimlanishi, %



**2019-yil yanvar–iyun oylarida chet elga ketgan O'zbekiston  
Respublikasi fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi, %**

2019-yil yanvar–iyun oylarida chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, ularning 53,3 % – 31 – 55 yoshlilar, 30,2 % – 19 – 30 yoshlilar va 11,8 % 56 yosh va undan kattalar, 4,7 % 18 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi.

Sayyohlik maqsadida xorijda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining 52,6 % – 31 – 55 yoshlilar, 19,4 % – 19 – 30 yoshlilar, 20,0 % - 56 yosh va undan kattalar tashkil etadi. O'qish maqsadida ketganlarning 84,5 % – 19 – 30 yoshlilar, 7,7 % – 18 yoshgacha bo'lgan fuqarolar tashkil etadi. Xizmat maqsadlarida tashrif buyurganlarning 69,9 % 31 – 55 yoshlilar, 18,5 % 19 – 30 yoshlilar tashkil etadi.